

## TIL TAFAKKUR VOSITASI

*Urkinbayeva Maqpal Amankeldiyevna*

*Rus va qozoq filologiyasi fakulteti.*

*Qozoq tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning jamiyatda paydo bo'lishi, jamiyat taraqqiyoti bilan birga taraqqiy etganligi, rivojlanganligi, hamda jamiyatda fikr almashuv doimiy va hayotiy zarurat hisoblanishi xususida fikrlar asoslanilgan. Odamlar til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutq odamlarning til vositasida aloqa bog'lashlari ekanligi, har bir kishining o'z nutqi borligi, Ammo ana shu nutqni bir necha tilda ifodalash mumkinligi haqida aytib o'tilgan. Demak, kishilar til yordamida o'zlaridan ilgari yashagan kishilarning hayotini, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni bilib olishlari mumkinligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, til, jamiyat, tafakkur, fikr, so'z, predmet va hodisalar, kommunikativ.

## LANGUAGE IS A TOOL FOR THINKING

**Abstract:** In this article, opinions are based on the emergence of language in society, the fact that it has progressed and developed along with the development of society, and that the exchange of ideas in society is considered a constant and vital necessity. It was mentioned that people exchange ideas with each other through language, speech is the way people communicate through language, everyone has their own speech, but this speech can be expressed in several languages. So, it is based on the fact that people can learn about the lives of people who lived before them, past events and events with the help of language.

**Key words:** Speech, language, society, thinking, thought, word, subject and events, communicative.

Til jamiyatda kishilarning bir-birlari bilan aloqa bog'lashlari uchun, bir-birlarining fikrlarini tushunishlari uchun muhim vositadir. Til jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun u ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Til jamiyat paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti bilan birga taraqqiy etgan, rivojlangan. Jamiyatda fikr almashuv doimiy va hayotiy zarurat hisoblanadi. Odamlar til vositasida o'zaro fikr almashadilar. Shuning uchun ham til aloqa vositasi bolishi bilan birga, jamiyatning rivojlanish manbayi hamdir. Odamlarning nutq orqali aloqalari har doim m a'lum bir til vositasida amalga oshiriladi. Til yordamida fikr almashmay turib, odamlar o'zaro m ehnat faoliyatlarini tashkil eta olmaydilar. Til jamiyat hayotida katta rol o'ynasa-da, u ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. Nutq bilan til o'zaro chambarchas bog'liq. Nutq

odamlarning til vositasida aloqa bog`lashlaridir. Har bir kishining o`z nutqi bor. Ammo ana shu nutqni bir necha tilda ifodalash mumkin. Til ijtimoiy hodisa bo`lganligi uchun ham u kishilarda mustaqil holda mavjud boladi. Til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq orqali aloqa boglashi jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan. Maktab yoshidagi bolaning nutqi tashqi olam bilan bog`langan holda uchta vazifani bajaradi: 1) kommunikativ; 2) bilish, 3) tartibga solish. Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta paydo bo`ladi. Bolaning ilk bor aytgan birinchi so`zi kommunikativ vazifani bajaradi. Keyinchalik esa bu so`z bolaning atrofdagi kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji o`sib borgan sari nutq sifatida takomillashib boradi. Ikki yoshdan boshlab bola o`z istak-xohishini airofdagi kishilarga tushunarli tarzda ifodalay oladi, o`ziga qarata aytilgan nutqni, so`zlar ma`nosini tushuna boshlaydi. Uch yoshdan keyin bola ichki nutqni egallaydi. Bu vaqtda nutq uning uchun muomala vositasi bo`libgina qolmay, balki boshqa vazifani — bilish vazifasini bajara boshlaydi; yangi so`zlar va so`z shakllarini o`zlashtira borib, tevarak-atrof haqidagi, predmet va hodisalar, ular o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik haqidagi tasavurlarini kengaytiradi. Bola nutqning kommunikativ va bilish vazifasi bilan birgalikda xulqini tartibga soluvchi nutqni ham egallay boshlaydi. Bola xulqini tartibga soluvchi birinchi so`z —bu mumkin, mumkin emas hamda buyruq fe`li shaklidagi ye, bor kabi so`zlar bolib qoladi. — Mumkin emas! *Qo`ling kuyadi!*—deb taqiqlash ohangi bilan aytilgan gap, qo`lini issiq choyga olib borayotgan bolani bu harakatdan to`xtatadi. Yoki kitobni yirtishga harakat qilayotgan kichkintoy qo`lidan kitobni olayotgan onaning qat`iy ravishda:— Mumkin emas! Kitob ketib qoladi. „Vali yomon bola ekan“ deb aytadi,— degan so`zlari bolani tartibli, intizomli bolishga undaydi. Tartibli, intizomli bo`lish esa shaxsning asosiy sifatlaridan biri bo`lib, undagi xarakter xususiyatlarining rivojlanishi uchun manba bo`lib hisoblanadi. Shuni ta`kidlab o`tish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning xulq-atvorini tartibga solib turuvchi, qilinadigan ishlarni rejalashtirishga undovchi vositadir. Biz nutq orqali, ya`ni til vositasi bilan har xil mulohazalar yuritamiz. Tafakkur hamisha til vositasida ifodalanadi. Til va tafakkur o`zaro uzviy bog`liq bo`lgan jarayondir. Shuning uchun ham fikrning realligi tilda namoyon bo`ladi, deyilishi bejiz emas. Tafakkur jarayonida nutq — hukm, xulosa chiqarish va tushuncha shakllarida namoyon bo`ladi. Demak, kishilar til yordamida o`zlaridan ilgari yashagan kishilarning hayotini, bo`lib o`tgan voqea va hodisalarni bilib oladilar. Shu bilan birga, o`zlari yashayotgan davrda bo`layotgan voqea va hodisalarni, yangiliklarni o`rganib, bilib oladilar. Til kishilarning eng qulay aloqa-aralashuv vositasidir. Inson til orqali: a) o`z fikrini bayon qiladi— axborot beradi; b) boshqalarning fikrini anglaydi — axborot qabul qiladi. Ravon nutq - bu kishilarning muloqotini va o`zaro bir-birlarini tushunishlarini ta`minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo`lmaydi: ravon nutq fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o`zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to`g`ri ifodalash

qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallaro, ichki individual va umuminsoniy. Til millatning noyob xazinasini bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda, namoyon bo'lgan. Tilning olijanob imkoniyatlari nutq orqali nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So'z va g'azal sulmoni A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. "Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa tilning manfaatidir". Demak, til qanchalik zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qiladi ekan. Uning kuch, qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog'liq. Ma'lumki til inson aqlining, faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajralib turadigan ham til emasmi? Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari til, nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining hayotga tatbiq etilish vositasi bo'luvchi qudratli qurolidir. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks etmaydi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir: 1-vazifasi - individuallaro - kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq - monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbat sifatida chiqadi. 2-vazifasi - ichki individual - bu yerda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarini tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. 3-vazifasi - umuminsoniy - bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda u grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir. Ta'lim muassasalarida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda. Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); Ta'lim muassasalarida bo'lib turgan vaqti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi. Dialogik ravon nutqni



rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish). Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud: To'g'ridan-to'g'ri bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash; Yo'ldosh - talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida o'qituvchi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

2. Ravon nutq mohiyati. Maktab yoshdagi bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini - dialogik va monologik shakllarini ko'rib chiqish lozim. Dialog ikki yoki bir necha: so'zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog'liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Dialogda, yuklamalardan foydalanilgan holda, sintaksik jihatdan sodda bo'lgan darak, undov (iltimos, talab), so'roq gaplarning barcha turlari namoyon etilgan. Til vositalari imo-ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. Tarbiyachi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish, so'rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish, luqma tashlash va h.k. Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta'lim muassasasidagi hayoti, uning do'stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog'liq turli xil mavzularda suhbat o'tkazishdan foydalanish lozim. Aynan dialogda suhbatdoshni tinglash, savollar berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlanadi. Qayd etilgan malaka va ko'nikmalar monologik nutqni rivojlantirish uchun ham zarurdir. Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo'lga qo'yish uchun kooperativ tuzdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat astasekinlik bilan shakllanadi. Dastlab bolalar ro'y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, yaqinda turib harakat qiladilar. Ushbu vaziyatda nutq tengdosh bolaning mavjud bo'lishi va u bilan so'zlashish imkoniyati orqali rag'batlantiradi hamda u o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy muloqot o'rnatish funksiyasini bajaradi. Bolalar o'rtasidagi muloqot asosan amaliy xususiyatga ega. Dialog ko'pincha shunday shaklga olib boriladiki, bunda bola sherigining qisqa luqmalariga harakat bilan javob beradi yoki ro'y berayotgan hodisaga nisbatan o'z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ular orqali bolalar bir-biriga e'tibor berishni, do'stlarini tovushidan bilib olishni, tashqi ko'rinish detallarini sezishni, nutqiy muloqot qilishni o'rganadigan ko'plab xalq o'yinlari mavjud. Dialog muloqotini yo'lga qo'yish uchun stol o'yinlari va chop etilgan («loto», «domino») o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Juft bo'lib o'ynashda bolalar dialogik hamkorlik qilish usullarini:

navbatga rioya qilish, bir-biriga xushmuomalalik bilan murojaat qilish, o'z nuqtayi nazarini dalil-isbotlar bilan himoya qilish, fikrlarini sherigi bilan muvofiqlashtirishni o'rganadilar. Bunday o'yinlarda biluvchanlikning asosi sifatida nutqiy topshiriqlarning har xil turlari ishtirok etishi mumkin, masalan: berilgan tovushli so'zlamni tanlab olish, akustik va artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni tabaqalashtirish, umumlashtiruvchi nomlarni tasniflash, rasmlar turkumi asosida birgalashib hikoya qilish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djamilova N.N. «Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi» -T.: TDPU, 2017.
2. To'ychiyeva. T. O'zbek ma'naviy qadriyatlari tizimida urf- odat va an'alarining o'rni. PFN ilm. dar. olish uchun yozil. diss. -T.: Nizomiy nomidagi, -T., TDPU, 2000.
3. Telegenov A. Xalq dostonlari vositasida o'smirlarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. (Alpomish dostoni misolida). PFN ilm. dar. olish uchun yozil. diss. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
4. Qo'chqorova M. Maqsadga erishish yo'li: Bolalar o'yinlari orqali olgan bilimlar//Boshlang'ich ta'lim, 1999, №3, 30-31 b.
5. Egamnazarova Sh. M. «Tarbiya ishlar metodikasi», «Him ziyo». -T., 2016.